

**ZAMONAVIY TA'LIM MAZMUNINI 4K MODEL ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH**

Sirojiddinova Firusa Xosilbekovna
Andijon davlat pedagogika instituti pedagogika va
psixologiya kafedrasi dotsenti, (PhD)

Maxmudova Feruzaxon Abduraxmon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti pedagogika va
psixologiya yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf darslarini “4K” modeli asosida tashkil etishda ishlab chiqilgan darsliklar va ushbu model tamoyillari, zamonaviy ta’lim darslarida o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish, yangi innovatsion uslublarni joriy etish, kolloboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash kabi tushunchalarni qamrab olgan “4K” modeli, yod olishga yo‘naltirilgan kontent o‘rniga o‘quvchining mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi, tanqidiy, kreativ va ijodiy fikrlash, jamoada ishlash kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantirish va takomillashtirishda muhim omillar borasida fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: “4K” modeli, kolloboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, jamoada ishlash, hamkorlik muhiti.

Boshlang‘ich ta’lim – shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi. Bu davr bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo‘lgani uchun ham nozik e’tibor talab etadi. Ayni shu pallada bola o‘zida “o‘quvchi shaxsi”ni yaratadi, maktabga va ta’lim olishga nisbatan qiziqishni, mehri tuyadi, ilm yo‘lidagi kelgusi natijalar uchun kuch to‘plashni boshlaydi. Bu esa, zamonaviy pedagogika oldidagi doimiy va murakkab masala sifatida darsliklarning g‘oyaviy, tarbiyaviy va ma’rifiy saviyasiga jiddiy yondashishni talab etadi.

Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o‘qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo‘yicha muayyan ishlar bajarildi va endilikda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yangi avlod darsliklari asosida ta’lim olmoqda. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganidir. Ya’ni bu tamoyilda quruq ma’lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o‘qish va yozishni o‘rgatish bilan cheklanilmaydi. O‘quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rganadi. Chunki zamonaviy ta’lim bugungi kun o‘quvchilariga quyidagilarni o‘rgatishi kerak:

1. Kompleks vazifalarni hal qilish;
2. Bilimlar, mantiq, tahlil, mushohadaga tayangan holda tanqidiy fikrlash, fikr-mulohazalarni shakllantirib, qaror qabul qilish;
3. Ijodiy fikrlash;
4. Insonlar bilan hamkorlik qilish;
5. Jamoada ishlash;
6. O‘zining va boshqalarning emotsiyalarini (his-tuyg‘ularini) to‘g‘ri baholash, ularni boshqarish, emotsional intellektga ega bo‘lish;
7. Diqqatni bir vazifadan boshqasiga tez qarata olish, moslashuvchan bo‘lish.

Buning uchun ta’lim jarayonida "4K" modeli ishlab chiqildi. Bu modelning tarkibi quyidagilardan iborat:

1. Kritik (tanqidiy) fikrlash (Critical Thinking);
2. Kreativlik (ijodiy yondashuv) (Creativity);
3. Kommunikatsiya (Communication);
4. Kooperatsiya (Coordinating With Others).

Quyida bularning har biriga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

Kollaboratsiya: Darsliklar o’quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o’quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o’zaro qo’llab-quvvatlash ko’nikmalarini o’rganishga ko’maklashadi.

Kollaboratsiya ya’ni hamkorlikda o’qitish g’oyasi turli mamlakat olimlari, jumladan, Amerika J.Xopkins universiteti professori – R.Slavin (1990), Minnesot universiteti professori – R.Jonson, D.Jonson (1987), Kaliforniya universiteti professori –Sh.Sharon (1988) tomonidan ishlab ishlab chiqilgan. O’tgan asrning 70-yillarida J.Dyui hamkorlikda o’qitishda natijalarni oldindan ko’ra bilish, amaliy faoliyatni tashkil etish g’oyasini ilgari surdi. Hamkorlikda o’qitish g’oyasi didaktikada 1970 yillarda paydo bo’lgan va Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Isroil mamlakatlari ta’lim muassasalarida keng qo’llanila boshlagan.

Hamkorlikda ishlash ko’nikmasi tarkibi:

- umumiy maqsadlarni o’z maqsadidek qabul qilish qobiliyati, ularga erishish uchun birgalikda harakat yo’nalishini qurish qobiliyati;
- ijtimoiy o’zaro ta’sir, ya’ni umumiy maqsadlarni muhokama qilish, muzokaralar olib borish, o’z harakatlarini boshqa odamlarning harakatlari bilan muvofiqlashtirish;
- o’z rejalari va g’oyalarini amalga oshirish uchun yetakchilik ko’nikmalarini va o’z
- jamoasini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish;
- o’z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish;
- mustaqillik va avtonomiya va tashabbuskorlik.

Hamkorlikda o’qitishning «Birgalikda o’qiyimiz» metodi

Hamkorlikda o’qitishning «Birgalikda o’qiyimiz» metodi 1987-yili Minnesot universiteti professorlari D.Jonson, R.Jonsonlar tomonidan ishlab chiqilgan. Sinf o’quvchilari 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratiladi. Har bir guruh darsda bajarilishi lozim bo’lgan topshiriqni ma’lum qismini bajaradi. Guruhlar topshiriqlarning to’liq bajarilish natijasida o’quv materialining yaxlit o’zlashtirilishiga erishiladi. Mazkur metodning asosiy prinsiplari-jamoani taqdirlash, o’quvchilarga individual yondashish, muvaffaqiyatlarga erishish uchun bir xil imkoniyatlarni vujudga keltirish.

Kommunikativlik: O’quvchilar o’z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o’rganadi. Bu ko’nikmasi quyidagilardan iborat:

- muloqotdan cho’chimaslik va muloqotni uyushtira bilish qobiliyati savollar berish va ularga javob berishga tayyorlik.
- muloqot maqsadi va mazmuniga, shuningdek, suhbatdoshga moslashish qobiliyati;
- muloqotchanlik maqsadlariga erishishda verbal va noverbal vositalardan foydalanish qobiliyati;
- muloqot qoidalari ma’nosini tushunish va ishonch darajasini oshirish;
- boshqa odamlarning fikrini tinglashni o’rganish;
- o’zining ijobiy obrazi shakllanishini ta’minlash;
- oz fikr va his-tuyg’ularini ifodalash amaliyoti;
- taqdim etish, qabul qilish va qayta aloqani aks ettirish amaliyoti;
- o’z fikrlari va mulohazalarini aniq dalillash amaliyoti;
- katta va kichik jamoada boshqalar bilan ishlash amaliyoti.

"Piyola" metodi

O’quvchilar doira shaklida turishadi va bir-birlariga piyolada choy uzatishadi. Lekin mashqning sharti shuki, bir kishi qilgan harakatni ikkinchi kishi

takrorlamasligi kerak. Masalan: kimdir piyolani qo’lini ko’ksiga qo’yib uzatadi, kimdir qo’lini orqasiga qo’yib uzatadi va hokazo... Agar kim boshqa birov qilgan harakatni takrorlasa o’yindan chiqadi. Ushbu texnologiya o’quvchilarda kommunikativlik a kollaboratsiyani rivojlantiradi.

Kreativ (ijodiy) fikrlash: O’quvchilar o’z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo’llashni o’rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko’nikmalariga ega bo’ladi. Kreativlik (Ijodkorlik) ko’nikmasi quyidagilardan iborat:

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

- qiziquvchanlik - tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko‘proq bilishga
- intilish, dunyo obyektlari o‘rtasidagi sabab-natija munosabatlarini aniqlash, axborotni mustaqil izlash va o‘z savollariga javob topish qobiliyati;
- tasavvur -ko‘plab original va nostandart g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;
- optimallashtirish - maqsadga tez va samarali erishish uchun bir nechta usullarni
- solishtirish qobiliyati;
- g‘oyalarni rivojlantirish - g‘oyalarni turli nuqtayi nazardan baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini izlash, o‘zgaruvchan sharoitlarda va yangi ma'lumotlarning paydo bo‘lishida o‘z faoliyatini tezda qayta qurish qobiliyati.

Essey - bu erkin shakldagi insho bolib, u muallifning biror masalaga munosabatin ifodalab, uni asoslab beradi. Esseyning mazmuni puxta o‘ylangan, mantiqan to‘g‘ri tuzilgan, tarkiblangan (kirish, asosiy qism va xulosadan iborat) bo‘lishi kerak. Muallf esseyda murojaat qilgan ma'lumotlar, faktlar, raqamlarning manbayi ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Esseyda ijodiy yondashuv sezilib turishi kerak. Esseyning tuzilishi: masalani qo‘yish - fikrlash - rejalashtirish - yozish – tekshirish - takomillashtirish. Ushbu metod o‘quvchilarning nutqiy-mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o‘rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtayi nazarini shakllantiradi. Tanqidiy fikrlashning tarkibi:

- tahlil - topshiriqni alohida kichik vazifalarga bo‘lish, masalalarni yechishning yakuniy algoritmlarini yaratish qobiliyati;
- baholash - ma'lumotlarining sifati va muvofiqligini baholash qobiliyati,
- tushuntirish - o‘z nuqtayi nazarini dalillash, mantiqiy-bog‘liq izchil matnlar qurish;
- maqsadlarni belgilash - erishish mumkin bo‘lgan maqsadlarni to‘g‘ri shakllantirish,
- zarur ma'lumotlarni va uning yetarliigini aniqlash, shu asosda mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyati;
- o‘zini boshqara bilish - o‘z-o‘zini tekshirish, xulosalarni tuzatish va mulohaza yuritish (refleksiya);
- modellashtirish - amaliy vaziyatni sifatli tahlil qilish va vazifalarni hal qilish uchun vaziyatni mavhum modeli bilan almashtirish qobiliyati;
- o‘rganilayotgan predmetga turli nuqtayi nazardan qarash amaliyoti;
- kuzatish va o‘lchovlarni rejalashtirish va amalga oshirish amaliyoti;
- muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirish;
- dallarni ajrata olish, ularni shakllantirish va baholash qobiliyati;
- strategik fikrlash.

“Sinkveyn” texnologiyasi

Sinkveyn - fransuz tilida “5 qator” ma’nosini beradi. Bu texnologiya ma’lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish) ga yordam beradigan qofiyalanmagan she’rdir. Sinkveyn yozish qoidalari:

- 1-qator: Mavzu bir so‘z yordamida ifodalash (ot tanlanadi)
- 2-qator: Mavzuni 2 ta so‘z bilan ifodalash (2 ta sifat)
- 3-qator: Ushbu mavzu bo yicha harakatlarni ifodalash (3 ta fe’l)
- 4-qator: Mavzuga munosabat, his – hayajon (jumla)
- 5-qator: Mavzu sinonimini bir so‘z bilan takrorlash.

Masalan:

1. Quyosh.
2. Zarrin, issiq.
3. Qizdiradi, yoritadi, isitadi
4. Quyoshning zarrin nurlari olamni charog‘on etadi!
5. Oftob.

Ushbu texnologiya o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va kreativlikni rivojlantiradi.

O‘quv metodik komplekslar faol o‘quv jarayoni uchun to‘liq materiallar to‘plami: darsliklar, mashq daftarlari, o‘qituvchilar uchun uslubiy qo‘llanmalarni o‘z ichiga oladi. Yangi innovatsion

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

yondashuvni O‘zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o‘rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta’limi ilg‘or mamlakatlar o‘quvchilarda 4K tamoyilini o‘z ichiga olgan XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratadi. PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallagan davlatlar ta’limida o‘quvchilarda “4K”ni o‘z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko‘nikmalarga alohida urg‘u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishmoqda.

Hozirda ushbu yangi uslubdagi darsliklar endigina maktablarimizda o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilganligi sababli bir qancha qiyinchiliklar kuzatilmoqda. Chunki bu darsliklardagi topshiriqlar va yangiliklar o‘qituvchilardan izlanish, yangi metodlarni qo‘llash qobiliyati hamda ularga moslashuvchanlik, zamonaviy texnologiyalar haqida chuqur bilim talab etmoqda. Zero, yangi yondashuvni qo‘llay olish asosan o‘qituvchilarga bog‘liqdir.

Birinchi sinfda ta’lim jarayoniga ko‘proq o‘yin orqali yondashiladi, ma’lumotlar asosan ko‘rsatish-vizual tarzda yetkaziladi. 1-3 sinflar uchun taqdim etilgan darsliklarning bir qismi, xususan, tasviriy san’at, o‘zbek tili va musiqiy savodxonlik bo‘yicha kitoblar kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanilgan holda ishlab chiqilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning zamonaviy metodikasi"dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo‘llanmasi Toshkent: 2023.
2. O‘rmonova Dilfuza Mamasalievna **TAKRORLASH VA MUSTAHKAMLASH DARSLARINI “4K” MODELINI ASOSIDA TASHKIL ETISHDA KOLLOBORATIV MUHITDAN FOYDALANISH USULLARI** Innovative Development in Educational Activities (IDEA) Vol. 2 No. 3 (2023)
3. <https://parliament.gov.uz/articles/1623>
4. <https://kun.uz/82301169?q=%2Fuz%2F82301169#>
5. <https://kun.uz/uz/82301169>
6. <https://yuz.uz/uz/news/4k--bolajak-talimni-belgilaydi>
7. <https://xabar.uz/uz/talim/ozbekistonda-4k-bolajak-talim-tamoyili>